

XORIJIY TILLARNI O'QITISH METODIKASI

*TerDU akademik litseyi Xorijiy tillar kafedrasini
nemis tili fani o 'qituvchisi*

Axmedova Sayyora Abduraimovna

Ingliz tili fani o 'qituvchisi

Maxamadinova Laylo Ramazanovna

Annotation. *Ushbu maqolada xoijiy tilni o'qitish va uning metodikasi haqida fikr va mulohazalar keltirilgan.*

Kalit so'zlar. *Xorijiy til, pedagogik texnologiya, metod, jamiyat, til o'rghanish, hodisa, jamoatchilik.*

Bizga ma'lumki, dunyoda xorijiy tillarni o'rghanish va o'rgatish turli soha vakillarini jalg etib kelmoqda. Va bu albatta ulardan hamkorlikda ishlashni taqozo etmoqda. Jahon amaliyotida o'quvchilarning xorijiy tillar bo'yicha kasbiy kompetentligini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashga doir innovatsion faoliyatini modernizatsiyalash alohida ahamiyatga molikdir. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasining —Ta'lim va fan sohasini rivojlantirishl bandida —Uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatlari ta'lim xizmatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirishl kabi muhim vazifalar belgilab berilgan edi. Biz bu vazifalarni amaliy jihatlarini quyidagi qaror va farmonlar orqali ko'rishimiz mumkin.

Til o'rghanish kishilik jamiyatida bag'oyat muhim sohalardan biri hisoblanadi. Muloqot vositasi bo'lmish tilni tabiiy muhitda ya'ni oilada, jamoatchilik orasida yoki uyushgan holda amaliy egallash mumkin. Til hodisalariga oid bilimlar esa nazariy jihatdan o'rgatiladi. Xalqaro munosabatlar avj olgan zamonamizda tillarni bilish, ayniqsa ko'p tillilik ulkan ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda tahsil oladigan o'quvchi va talabalar odatda uch tilni o'rghanadilar. Ushbu tillar maxsus nomlar bilan yuritiladi. Bular quyidagilar: ona tili, ikkinchi til, va chet til. Ona tili tafakkur shakllanishida alohida xizmat o'taydigan birinchi til hisoblanadi. Ikkinchi til haqida so'z yuritilganda, unga boshqa millat vakillaridan ibrat qardoshlar, qo'shnilar tili sifatida qaraladi.

Chet til – bu xorijiy mamlakat tilidir. Respublikamizda G'arbiy Yevropa (ingliz, ispan, nemis, faransuz) tillari va Sharq (arab, turk, fors, xitoy, hind) tillari o'qilib kelinmoqda. Bu tillar ta'lim muassalarining o'quv rejalaridan o'rinn olgan. Uchala tilni o'qitish jarayoni turlicha kechadi. Ona tili va ikkinchi til tabiiy vaziyatda, chet til esa sun'iy muhitda o'rganiladi. Chet tildagi muloqot, asosan, darsda muallim rahbarligida kechadi. Uchala til orasida chet tilni o'rghanish va o'rgatish muayyan jihatlari bilan keskin farq qiladi. Bu esa, o'z navbatida, tegishli chet til o'qitish texnologiyasini qo'llashni taqozo etadi. Chet til muallimi metodika fani yutuqlarini puxta o'zlashtirish orqali o'quvchi-talabaning to'plagan til tajribasi me'yorini aniq bilishga va uni yanada takomillashtirishga erishadi. Chet tillarni samarali o'rgatish uning metodikasini bilishni taqozo etadi. Chet tillarni o'rghanish va

o“rgatish ko“p jihatdan chet til o“qitsih metodikasi masalalarini nazariy tomondan ishlab chiqilishiga va nazariyaning amalda ijodiy qo“llanilishiga bog“liqdir

Ta‘lim jarayonini rivojlantirish va o‘zgartirish o‘qituvchi va o‘quvchilarning dars jarayonida o‘zaro ochiq muloqotga kirisha olishiga bog‘liqdir. Ta‘lim jarayonida qo‘llaniladigan metod va texnologiyalar butun bir dars jarayonini va o‘quvchilarning faolligini oshiradi, desak mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz. Pedagogik texnologiyalar o‘quvchilarga yangi bilim berish, konikma hosil qilish, o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatini rag‘batlantirishda katta ahamiyat kasb etadi. Yangi tamoyillar assosida rivojlanayotgan ta‘lim tizimini yosh avlodni barkamol, ma‘naviy yetuk inson sifatida shakllantirishga qarata olgandir. Xorijiy tillarni o‘rgatishda metodikaning o‘rni katta rol o‘ynaydi. Metodika buo‘qituvchining qanday dars o‘tishini o‘rganadi. Metodika tarixga oid adabiyotlarni chuqurroq o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, ayrim tadqiqotchilar metodikani san‘at deydilar. Ular odatda fransuz metodisti Penlash fikriga ishora qiladilar., ya‘ni —yaxshil yoki —yomon metod yo‘q, aksincha —yaxshil yoki —yomon o‘qituivchilar bor. Bunday fikrdagi kishilarga nemis metodisti E.Ottoning 1924-yilda bayon qilingan fikrlari bilan javob berish mumkin. U jumladan shunday deydi: —Agar kimki metodikani san‘at deb hisoblar ekan, u fan nazariyasini uning amalda qo‘llanishi bilan qorishtirib yuboradi|. Har bir fanda o‘z tushunchalar yig‘indisi mavjud. Xorijiy til o‘qitish metodikasida qabul qilingan asosiy tushunchalar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: talim sistemasi, ta‘lim metodi, ta‘lim prinsipi, ta‘lim vositasi, metodik usul.

Xorijiy til o‘qitish metodi- deyilganda xorijiy til o‘rgatishning amaliy, umumta‘limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlariga erishuvni ta‘minlovchi muallim va o‘quvchi faoliyatining majmuasi tushuniladi. Metod atamasi —ta‘lim usullari yig‘indisi| va —talimning yo‘nalishi| ma‘nolarida qo‘llanadi. Birinchisi ta‘lim nazariyasida jarayon metodlar ma‘nosida ishlatilsa, ikkinchi ma‘noda uni o‘qitish metodikasi tarixiga oid asarlarda uchratishimiz mumkin. Masalan, xorijiy til o‘qitishning tarjima metodi, to‘g‘ri metod, ongli- qiyosiy metod, an‘anavy metod, intensiv metod va boshqalar hisoblanadi.xorijiy til o‘qitish metodikasi didaktika bilan uyg‘un, o‘zaro bog‘langan holda rivojlanib kelgan. Barcha o‘quv fanlarining o‘qitish nazariyalari didaktika faniga asoslanishi, undan ilmiy ozuqa olishi shubhasiz barchamizga ma‘lum. Xorijiy til o‘qitish ham didaktikaga asoslanadi. Didaktika ta‘limning umumiyy nazariyasi, metodika muayyan o‘quv predmetini o‘qitish ilmi, lingvodidaktika tillarni tillarni o‘qitish umumiyy nazariyasi, lingvometodika aniq bir tilni o‘qitish ilmi sifatida qaraladi. —Metod|atamasi bilim, malaka, ko‘nikma egallah, o‘quvchilarda dunyoqarashni shakllantirish va bilish imkoniyatlarini yartish yo‘lidagi o‘qituvchi-pedagog va talabaning yoki o‘quvchining ish usuli ma‘nolarini bildiradi. Quyida metodlarning mohiyati va amalda qo`llay olishdagi samaralari haqida so`z yuritamiz.

—YALPI FIKRIY HUJUM| METODI o_ quvchilar tomonidan yangi g_oyalarning o_rtaga tashlanishi uchun sharoit yaratib berishga xizmat qiladi. Har bir 5 yoki 6 nafar o_ quvchilarni o_z ichiga olgan guruhlarga 15 daqiqa ichida ijobjiy hal etilishi lozim bo_lgan turli xil topshiriq yoki ijodiy vazifalar belgilangan vaqt ichida ijobjiy hal etilgach, bu haqida guruh a‘zolaridan biri ax dorot beradi. Guruh tomonidan berilgan axborot (topshiriq yoki ijodiy vazifaning yechimi) o_qituvchi va boshqa guruhlardan a‘zolari tomonidan muhokama

qilinadi va unga baho beriladi. Mashg

ulot yakunida o_qituvchi berilgan topshiriq yoki ijodiy vazifalarning yechimlari orasida eng yaxshi va o_ziga xos deb topilgan javoblarni e'lon qiladi. Mashg

ulot jarayonida guruhlar a'zolarining faoliyatlarini ularning ishtiroklari darajasiga ko_ra baholab boriladi.

—6x6x6|| METODI yordamida bir vaqtning o_zida 36 nafar o_quvchini muayyan faoliyatga jalgan etish orqali ma'lum topshiriq yoki masalani hal etish, shuningdek, guruhlarning har bir a'zosi imkoniyatlarini aniqlash, ularning qarashlarini bilib olish mumkin. Bu metod asosida tashkil etilayotgan mashg

ulotda har birida 6 nafardan ishtirokchi bo_lgan 6 ta guruh o_qituvchi tomonidan o_rtarga tashlangan muammoni muhokama qiladi. Belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach o_qituvchi 6 ta guruhni qayta tuzadi. Qaytadan shakllangan guruhlarning har birida avvalgi 6 ta guruhdan bittadan vakil bo_ladi. Yangidan shakllangan guruh a'zolari o_z jamoadoshlariga guruhni tomonidan muammo yechimi sifatida taqdim etilgan xulosani bayon etib beradilar va mazkur yechimlarni birgalikda muhokama qiladilar.

—6x6x6|| metodining afzallik jihatlari quyidagilardir:

- guruhlarning har bir a'zosining faol bo_lishiga undaydi;
- ular tomonidan shaxsiy qarashlarning ifoda etilishini ta'minlaydi;
- guruhning boshqa a'zolarining fikrlarini tinglay olish ko_nikmalarini hosil qiladi;

—ilgari surilayotgan bir necha fikrni umumlashtira olish, shuningdek, o_z fikrini himoya qilishga o_rgatadi.

Eng muhimmi, mashg

ulot ishtirokchilarining har bir qisqa vaqt (20 daqiqa) mobaynida ham munozara qatnashchisi, ham tinglovchi, ham ma'ruzachi sifatida faoliyat olib boradi. Ushbu metodni 5, 6, 7 va 8 nafar o_quvchidan iborat bo_lgan bir necha guruhlarda qo_llash mumkin. Biroq yirik guruhlar o_rtasida —6x6x6|| metodi qo_llanilganda vaqtini ko_paytirishga to_g_ri keladi. Chunki bunday mashg

ulotlarda munozara uchun ham, axborot berish uchun birmuncha ko_p vaqt talab etiladi. So_z yuritilayotgan metod qo_llanilayotganda mashg

ulotlarda quruhrular tomonidan bir yoki bir necha mavzuni qilish imkoniyati mavjud.

—6x6x6|| metodidan ta'lim jarayonida foydalanish o_qituvchidan faollik, pedagogik mahorat, shuningdek, guruhlarni maqsadga muvofiq shakllantira olish layoqatiga ega bo_lishni talab etadi. Guruhlarning to_g_ri shakllantirmsligi topshiriq yoki vazifalarning to_g_ri hal etilmasligiga sabab bo_lishi mumkin. Bu metod yordamida mashg

ulotlar quyidagi tartibda tashkil etiladi:

1. O_qituvchi mashg
ulot boshlanishidan oldin 6 ta stol atrofiga 6 tadan stul qo_yib chiqadi.
2. O_quvchilar o_qituvchi tomonidan 6 ta guruhga bo_linadi. O_quvchilarni guruhlaga bo_lishda har o_rindiqni nomlab, nomlangan varaqchalarni olganlar o_z o_rinlariga joylashadilar.
3. O_quvchilar joylashib olganlaridan so_ng o_qituvchi mashg
ulot mavzusini e'lon qiladi va guruhlarga muayyan topshiriqlarni beradi. Ma'lum vaqt belgilanib, munozara jarayoni tashkil etiladi.
4. O_qituvchi guruhlarning faoliyatini kuzatib boradi, kerakli o_rinlarda guruh a'zolariga maslahatlar beradi, yo_l-yo_riqlar ko_rsatadi hamda guruhlar tomonidan berilgan

topshiriqlarning to_g_ri hal etilganligiga ishonch hosil qilganidan so_ng guruhlardan munozaralarni yakunlashlarini so_raydi.

5. Munozara uchun belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach, o_qituvchi guruhlarni qaytadan shakllantiradi. Qaytadan shakllangan guruhlarning har birida avvalgi 6 ta guruhdan bittadan vakil bo_ladi. Yangidan shakllangan guruh a'zolari o_z jamaodoshlariga guruhi tomonidan muammo yechimi sifatida taqdim etilgan xulosani bayon etib beradilar va mazkur yechimlarni birgalikda muhokama qiladilar.

Xulosa qilib aytganda, xorijiy til o'rganish ko'p qirrali ta'limot bo'lib, bu jarayonda inson murakkab psixologik o'zgarishlarni boshdan kechiradi. Jumladan, ona tili bilan chet tilini taqqoslash jarayoni yuzaga keladi. Bu jarayonda o'rgatishning turli metod va texnologiyalaridan foydalaniladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida xorijiy til bilan ona tilini taqqoslab o'rgatish samarali natija beradi. Xorijiy tilni o'rgatish uning metodikasiga oid bilimlarga ega bo'lishni taqozo etadi. Metodika va texnologiyalar xorijiy til o'rganish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jalolov Jamol. Chet til o_qitish metodikasi. —O_qituvchi— nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Toshkent – 2012.
2. Bekmuratova U. B. —Ingliz tilini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish mavzusida referat. Toshkent — 2012 yil
3. Samarova, S.R. (2019). Methods and technologies for the development of creative thinking of pupils. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 7(10), 37-43.
4. Отабоева, М. Р. Chet tilini o'qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalaridan foydalanish va uning samaradorligi / М. Р. Отабоева. — Текст: непосредственный, электронный // Молодой ученый. — 2017. — № 4.2 (138.2). — С. 36–37. — URL:
5. Juraboyev, B. B. (2020). Nemis tilini o'qitishda kommunikativ yondashuv. Science and Education, 7(7), 215-220.